

UDC: 343.54(042)(575.1)
ORCID: 0000-0003-3970-2985

JINSIY JINOYATLARDA JABRLANUVCHI XULQ-ATVORINING O'RNI

Niyozova Salomat Saparovna,
Toshkent davlat yuridik universiteti
“Jinoyat huquqi, kriminologiya va
korrupsiyaga qarshi kurashish” kafedrasi
professori v.b., yuridik fanlar doktori
e-mail: salomat.niyozova@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada jinsiy jinoyatlarda jabrlanuvchi xulq-atvorining o'rni haqida so'z yuritilib, tegishli taklif va tavsiyalar berilgan. Viktim xulq-atvori sabab bo'lgan nomusga tajovuz qilganlar bir necha guruhga ajratilgan: 1) jinoyat jabrlanuvchilarining mast holda bo'lganligi; 2) pala-partish tanishuvi, yengiltak, ba'zan erkak bilan muloqotda chechan bo'lgan ayollar. Bunday ayollar o'zlarining xatti-harakatlari bilan o'z nomusiga tajovuz qilinishiga moyillik bildirganligi; 3) noto'g'ri jinsiy tarbiya olgan shaxslar. Shuningdek, mazkur maqolada jabrlanuvchining jinoyatga ko'maklashadigan va ko'maklashmaydigan, ig'vogarona xulq-atvori ham tahlil etilib, uning oldini olishga doirfikrlar bildirilgan. Bundan tashqari, voyaga yetmaganlarga nisbatan oila a'zolari tomonidan jinsiy zo'ravonlik ishlatish, voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi va jinoyatchiligi kabi salbiy oqibatlar haqida ham fikr yuritilgan bo'lib, o'tkazilgan tadqiqotlarga qaraganda, 28,7 % holatlarda jabrlanuvchilarning viktima xulqi jinoyat sodir etilishiga sabab bo'lgani, ya'ni nomusga tegish jinoyati bo'yicha 29 % holatlarda voyaga yetmagan jabrlanuvchilar o'zlarining yengiltak xulq-atvori bilan tavsiflangani, 45 % holatlarda esa ularga jamoatchilik tomonidan salbiy tavsif berilgani aytib o'tilgan. Maqolada voyaga yetmaganlar jinsiy daxlsizligi va erkinligiga qarshi qaratilgan tajovuzlarda jabrlanuvchining kriminologik tavsifini belgilovchi eng ko'p tarqalgan: voyaga yetmagan shaxsning tajovuzlar bilan birgalikda spirtli ichimliklar iste'mol qilishi; voyaga yetmaganlarning axloq normalariga zid xulqi; behayo kiyimlar (mini yubkalar va boshqalar); suhbatlarni jinsiy mavzularga aylantirishi kabi omillar misollar bilan tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: jabrlanuvchi, voyaga yetmagan, aybdor, xulq-atvor, jinsiy jinoyatlar, viktimalik, subyekt, javobgarlik, jinoyat, ijtimoiy xavflilik.

РОЛЬ ВИКТИМНОГО ПОВЕДЕНИЯ ПРИ ПРЕСТУПЛЕНИЯХ НА СЕКСУАЛЬНОЙ ПОЧВЕ

Ниязова Саломат Сапаровна,
доктор юридических наук, и.о. профессора
кафедры “Уголовное право, криминология
и противодействие коррупции”
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. Вданной статье обсуждается роль поведения жертвы в преступлениях на сексуальной почве и приводятся соответствующие предложения и рекомендации. Жертвы изнасилования в зависимости от виктимного поведения можно автор делит на несколько групп: 1) потерпевшие в состоянии алкогольного опьянения; 2) женщины склонны к беззаботным поведением, легко контактирующие с мужчинами (такие женщины своими действиями провоцируют изнасилование); 3) лица, подвергшиеся сексуальному насилию. Также в статье анализируется провокационное поведение потерпевшего, которое может способствовать или не способствовать совершению преступления, и приводятся доводы по его предотвращению. Кроме того, учитывались такие негативные последствия, как применение несовершеннолетними сексуального насилия в отношении членов семьи, правонарушения несовершеннолетних, делинквентность, то есть в 29 % случаев изнасилования несовершеннолетние жертвы характеризовались своим легкомысленным поведением, а в 45 % случаев – они были негативно охарактеризованы общественностью. В статье чаще

всего определяется криминологическая характеристика потерпевшего от посягательств на половую неприкосновенность и свободу несовершеннолетних: употребление несовершеннолетним алкоголя в сочетании с агрессией; незтичное поведение несовершеннолетних; соблазнительная одежда (мини-юбки и т. д.); такие факторы, как превращение разговоров в сексуальные темы, были проанализированы на примерах.

Ключевые слова: потерпевший, несовершеннолетний, виновный, поведение, половые преступления, потерпевший, субъект, ответственность, преступление, общественная опасность.

THE ROLE OF VICTIM BEHAVIOR IN SEXUAL ASSAULT

Niyozova Salomat Saparovna,

Acting Professor
of the Department of Criminal Law,
Criminology and Anti-Corruption of
Tashkent State University of Law,
Doctor of Law

Abstract. This article discusses the role of victims in sexual crimes and provides relevant suggestions and recommendations. In this article, the perpetrators of rape has been divided into several groups. These include 1) the fact that the victims of the crime were intoxicated; 2) street acquaintance, behaving light-heartedly in dates with men. The tendency of such women to be raped by their actions; 3) persons with improper sex education. The article also analyzes the victim's provocative behavior, which may or may not contribute to the crime, and provides feedback on how to prevent it. In addition, 29.7% of reported cases of sexual abuse of minors by family members, as well as negative consequences such as juvenile delinquency were reported as the leading cause of death in 28.7% of cases. In 29% of cases, juvenile victims were described as light-hearted, and in 45% of cases, they were negatively described by the community. In the article, the most common factors determining the criminological characteristics of the victim of sexual assault against minors are: the consumption of alcohol by the juvenile in conjunction with the rape; immoral behavior of a minor; immoral clothes (miniskirts and others); turning conversations into sex topics have also been analyzed with examples.

Keywords: Victim, juvenile, guilty, behavior, sexual offenses, victim, subject, responsibility, crime, social danger.

Respublikamizda jinoyatlar viktimligining oldini olishga doir o'ziga xos milliy tizim va normativ-huquqiy asoslar yaratilib, uni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishga ahamiyat berilganligi natijasida fuqarolarning turli huquqbazarliklar va jinoyatlardan muhofaza qilish darajasi ortib bormoqda. Shu bilan birga, shaxsga qarshi zo'rlik ishlatisib sodir etiladigan jinoyatlarning xavfli shakllari: qasddan odam o'ldirish, qasddan badanga og'ir shikast yetkazish, qiynash, nomusga tegish, odam o'g'irlash, odam savdosi kabi jinoyatlardan jabrlanishning oldini olish, ularga yetkazilgan ma'naviy, moddiy zararlarning qoplanishiga doir huquqiy mexanizmlarni yaratish va ushbu jinoyatlar viktimologik profilaktikasining samaradorligini oshirish, milliy qonun hujjatlarini takomillashtirish va qonunni qo'llash amaliyoti bilan bog'liq muammolarning yechimini topish kabi masalalar dolzarbligini yo'qotmagan.

Shu nuqtayi nazardan "jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish va liberal-

lashtirish, alohida jinoiy qilmishlarni dekrriminallashtirish, jinoiy jazolar va ularni ijro etish tartibini insonparvarlashtirish, jinoyatchilikka qarshi kurashtish va huquqbazarliklar viktimligining oldini olish borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirish va uning samaradorligini oshirish" [1] sud-huquq sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari qatorida belgilanib, bu sohani tadqiq etish, o'z navbatida, jinsiy jinoyatlar uchun jazo tayinlashda jabrlanuvchi xulq-atvorini e'tiborga olish va ushbu jinoyatlar viktimologik profilaktikasini takomillashtirish va uni tadqiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bizga ma'lumki, viktimologiya nuqtayi nazardan jinsiy zo'rlikka oid ishlar bo'yicha jabrlanuvchining aybi jabrlanuvchining g'ayriy xulq-atvori boshqa shaxs tomonidan unga zarar yetkazgan qilmishning sodir etilishi, jabrlanuvchiga zarar yetkazishining axloqsiz xulq-atvori natijasidagina mavjud bo'ladi. Shuningdek, jabrlanuvchiga yetkazilgan ziyon ham zarar yetkazuvchining harakat-

lari va jabrlanuvchining o'z harakatlari salbiy bog'lanishda bo'lgan hamda qasddan yoki ehtiyotsizlikdan sodir etilgan [2]. Agarda jabrlanuvchi o'z harakatlari natijasida unga zarar yetkazilishi mumkinligiga ko'zi yetishi mumkin bo'lmanan yoki lozim bo'lmanan bo'lsa, "jabrlanuvchining aybi" to'g'risidagi masala istisno etiladi. Shu sababli yosh bolalar yoki aqli norasolarga zarar yetkazilishiga shu shaxslarning harakatlari imkon bergen hollarda, "jabrlanuvchining aybi" to'g'risida so'z yuritish mumkin emas.

Subyektning jinoiy javobgarligi inson hayoti, sog'ligi va jinsiy zo'rlikda jabrlanuvchining "aybi" qanday ahamiyatga ega? Bu ayb o'z-o'ziga zararyetkazuvchining jinoiy javobgarligini istisno qiluvchi holat bo'lishi mumkinmi? Jabrlanuvchining "aybi" ijtimoiy xavf yetkazuvchi jinoiy javobgarlikda asosiy o'rinni tutishi mumkin emas. Jinoyat tarkibi belgilari mavjud bo'lganda, aybdo'r, jabrlanuvchi "aybi" dan qat'i nazar jinoiy javobgarlikka tortiliishi lozim.

Biroq jinoyat sodir etilguniga qadar jabrlanuvchi o'zini xavf ostiga qo'yanan, kissavurlikda ziyrak bo'lmanan, firibgarlikda ehtiyotsizlik qilgанини jinoyatchining aybiga mutlaqo ta'sir qilmaydi. Ya'ni uning aybi yuqorida ko'rsatilgan holatlardan ko'payib ham, kamayib ham qolmaydi. Biroq bu ayb umuman istisno etiladi, degani emas. To'g'rirog'i, jabrlanuvchilarining xulq-atvori jinoyat subyekti aybi bilan chambarchas bog'liq va unga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ya'nibuxulq-atvor jinoyat subyekti aybining darajasini belgilashda ahamiyatga ega bo'lishi lozimki, bu jazo tayinlashda bevosita aks etishi kerak.

Jinsiy jinoyatlardan jabr ko'rgan shaxslar jabrlanuvchilarining o'ziga xos tipi hisoblanadi. Ularning aniq soni statistik ko'rsatkichlardan ancha ko'p. Bunda ayollar mutlaq ko'pchilikni tashkil etadi. Afsuski, bugungi kunda kriminologiya fanida alohida ijtimoiy tabaqalarning viktimgilini aniqlash usulining ishlab chiqilganligiga (mazkur muammo favqulodda dolzarb ahamiyatga ega ekanligiga) qaramay, jinoyatlardan jabr ko'rgan shaxslarning salmog'i haqida to'g'ri va to'liq ma'lumotlarga ega emasmiz [3].

Buning asosiy sababi jinoyatlar tufayli jabr ko'rganlarni statistik hisobga olish va to'la tafsiflash uchun bazaning mavjud emasligidadir. Shunga qaramay, O'zbekistondagi shaxslarning viktimgilik darajasi (koeffitsiyenti)ni rasmiy statis-

tika ma'lumotlari asosida aniqlash lozim. Masalan, jabrlanuvchiga nisbatan sodir etilgan jinoyatning turi va alohida mintaqalarga tatbiq etish natijasida aniqlashtirish mumkin. Mazkur jinoyat turing (ma'lumki, u mavsumiy xususiyatga ham ega) miqdor ko'rsatkichlaridagi tabiiy o'zgaruvchanlikdan kelib chiqib, bu borada go'yoki qo'lga kiritilgan ijobiy natijalar va statistik tendensiyalar haqida shoshib-pishib xulosa chiqariladi. Tabiiyki, yuqorida zikr etilgan holatda jinoyatlardan jabr ko'rganlarning real soni sodir etilgan jinoyatlar sonidan ancha ko'p bo'ladi. Vaholanki, mamlakat, viloyat, shahar yoki tuman miqyosida jinoyatlarining jabrlanuvchilariga nisbatan profilaktika choralarini tashkil etish uchun jinoyatchilik oqibatlarining miqdor va sifat ko'rsatkichlarining aniqligi juda muhimdir [4], deb ta'kidlaydi Q.R. Abdurasulova.

Ko'p hollarda zo'rlikdan jabr ko'rgan ayol jabrlanuvchilarining viktima xulqi jinoyat sodir etishga asos qilib olingan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, jabrlanuvchi ayollarning 42,5 % i jinoyatchi bilan birgalikda spirtli ichimlik iste'mol qilib, buning natijasida qarshilik ko'rsata olmaganligi, qarshilik qilish imkoniyati bo'la turib, faqat 57,5 % i qarshilik ko'rsatganligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, jabrlanuvchilarining viktima xulq-atvori sababli nomusiga tajovuz qilganlarni bir necha guruhga ajratish mumkin. Jumladan: 1) jinoyat jabrlanuvchilarining mast holda bo'lganligi; 2) pala-partish tanishuvi, yengiltak, ba'zan erkak bilan muloqotda chechan bo'lgan ayollar. Bunday ayollar o'z xatti-harakatlari bilan o'z nomusiga tajovuz qilinishiga moyillik bildirganligi; 3) noto'g'ri jinsiy tarbiya olgalar. Ular shahvoni shilqimlik qilinganda, o'zini qanday tutishni biladi, ammo nomusiga tajovuz qilayotgan shaxsdan o'zini himoya qila olmaganligi; 4) erkaklarning e'tiborini noto'g'ri tushunadi-gan, shahvoni xatti-harakatli jinoyat yuz berishi mumkinligini o'ylamagan jabrlangan ayollar.

A.V. Baskov o'z tadqiqot ishidajamoat joylarida zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarda jabrlanuvchilarining shaxsini o'rganib chiqqan hamda ular bilan viktimologik profilaktika olib borish uchun kerakli chora-tadbirlar belgilash maqsadida jabrlanuvchilarini quyidagi guruuhlariga ajratgan: yengil fikrlovchi va axloqsiz va ijobiy shaxslar [5]. F.X. Xatkova esa o'z tadqiqotida axloqning ijobiy yoki salbiyligi jinoyatlar viktimgilini

kamaytirmasligi, bunday holat bilan ayollarning jinoyatlardan jabrlanish darajasi yuqori bo'lishi [6]ni ta'kidlaydi.

Jinsiy jinoyatlar tahlili kriminogen vaziyatda jabrlanuvchilarning xulq-atvori (o'zini tutishi) xilma-xil bo'lganligidan dalolat beradi [7]. Bu xilma-xillik turli asoslar bo'yicha toifalarga bo'linishi mumkin. Fikrimizcha, kriminologik jihatdan jabrlanuvchilarning xulq-atvorini jinoiy xatti-harakat mexanizmida tutgan o'rniga qarab turlargaga bo'lish ko'proq ahamiyatlidir. Shu mexanizmdan kelib chiqqan holda, jabrlanuvchilarning xulq-atvorini ikki guruhga, ya'ni jinoyat sodir etilishiga ko'maklashadigan va ko'maklashmaydigan xulq-atvorga ajratish mumkin.

Ba'zi mualliflar yuqorida aytib o'tilgan jabrlanuvchilarning xulq-atvori bilan bir qatorda, mustaqil guruh sifatida jabrlanuvchining qo'zg'atuvchi (turtki bo'luvchi) xulqini ham ko'rsatadi. Bunda qo'zg'atuvchi harakat deganda, jabrlanuvchining jinoyat sodir etilishining sabablaridan biri sifatida obyektiv ravishda namoyon bo'luvchi xulqi (haqorat qilishlar, janjal ko'tarishlar, kamsitishlar, xiyonatlar) tushuniladi. Ko'maklashish deganda esa jinoyat sodir etilishiga yordam beradigan vaziyatni vujudga keltirish angashiladi [8].

Fikrimizcha, quyidagi nuqtayi nazar to'g'riroq ko'rindi: vaziyatning tazyiqi qanchalik kuchli bo'lmasin, tashqi holatlarning o'zi (jumladan, jabrlanuvchining xulq-atvori) jinoyatning sodir etilishini keltirib chiqarmaydi, uning sababi bo'la olmaydi. Muayyan ijtimoiy muhit bilan o'zaro bog'lanishdagina namoyon bo'ladigan, shaxs ongida mavjud bo'lgan jinoiy xulq yuzaga chiqishini belgilovchi mohiyatga ega bo'ladi va ijtimoiy xususiyatlar tizimini amalga oshirishga yordam beradi. Ya'ni jabrlanuvchining qo'zg'atuvchi xatti-harakatlari jinoyatni keltirib chiqarmaydi, uning sodir etilishiga ko'maklashadi. Shu sababli ularni mustaqil guruh sifatida ajratmasdan, jinoyatga ko'maklashadigan xulqning bir ko'rinishi, uning eng keskin shakli, deb hisoblash maqsadga muvofiqdir.

Jabrlanuvchining jinoyatga ko'maklashmaydigan xulq-atvori obyektiv ravishda kriminogen – viktimogen xususiyatga ega emas. Bu esa jinoiy xatti-harakatlarga turtki bo'lmaydi va jinoyatning sodir etilishiga ko'maklashadigan shart-sharoitlarni vujudga keltirmaydi. Jabrlanuvchilarning 62 foizi zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar-

da jinoyat sodir etilishiga u yoki bu tarzda ko'maklashgan, 38 foizida buning aksi bo'lgan. Ya'ni ularning harakatlarida aybdorda nojo'ya xulqning vujudga kelishiga ta'sir ko'rsatgan qandaydir omillar mavjud bo'lgan.

Jabrlanuvchilarning xulq-atvoridagi viktimlikning ko'rinishi turlicha bo'lishi mumkin. Ularning jinoyat sodir etilishiga ta'siri bevosita jinoyatdan avval yuzaga kelgan vaziyat yoki jinoyatchining shaxsi orqali, agar ular o'tmishida bunday holatni shakllantirishga ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, namoyon bo'lishi mumkin. Kriminogen sabablarni bajaradigan vazifasiga qarab ikki guruhga ajratish lozim: 1) jinoyat sodir etilishi uchun kriminogen vaziyatni vujudga keltiruvchi xulq ko'rinishlari; 2) jinoyatchi shaxsida g'ayriaxloqiy xulq-atvorni shakllantiruvchi kriminogen ijtimoiy ruhiy xulq shakllari. Ikkinci guruhga kiruvchi xulq-atvorga jabrlanuvchilarning jinoyatchi zo'ravonlik harakatlariga qarshilik ko'rsatmasligi misol bo'la oladi. Xulq-atvorning bu shakli oilaviy-maishiy jinoyatlar uchun odatiy bo'lib, u rashk tufayli sodir etiladigan jinoyatlar uchun ham xosdir [9], deb ta'kidlaydi O.G'. Zokirova. Chunki ularning jismoniy qarshilik ko'rsatish imkoniyatlari cheklangan. Ya'ni jabrlanuvchining ko'pchiligi voyaga yetmaganlar, ayollar va ojiz ahvoldagi shaxslardir.

Amaliyot materiallarining tahlili jabrlanuvchilarning bemalol foydalanishi mumkin bo'lgan qarshilik ko'rsatish usullaridan ham foydalanganligini ko'rsatadi. Agar jabrlanuvchining xulq-atvori: 1) jabrlanuvchining harakatlari, fuqarolar nuqtayi nazarida salbiy xususiyatga ega bo'lgan bo'lsa; 2) ular bevosita jinoyatchiga qaratilgan bo'lsa; 3) jabrlanuvchi o'z xulq-atvoring aybdor shaxs uchun alamli, tahqiromuz ekanini anglagan, ammo aybdorga nisbatan shunday munosabatni davom ettirgan bo'lsa, bunday xulq-atvorni ig'vogarona, qo'zg'atuvchi xulq deb aytish mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, jinoyat ishlarini o'rganish asosida jinoyatlardan jabrlanganlarning ig'vogarona xulq-atvoring qanchalik keng tarqalanganligini aniqlash qiyin. Jabrlanganlar, odatda, o'z ko'rsatmalarida o'zlarini oqlashga harakat qiladi, ularning hech biri o'zi sodir etgan harakatlarning qasddan qilinganini tan olmaydi.

Jinsiy jinoyatlarni tergov qilish va sudda ko'rib chiqishda jabrlanuvchining jinoiy qilmishga sabab bo'lgan harakatlari xususiyatini aniqlashga

har doim ham yetarlicha e'tibor berilavermaydi. Vaholanki, bu sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini aniqlash uchun juda muhimdir. Aybdorning zo'rlik harakatining oldini olish yoki uni to'xtatish uchun jabrlanuvchi tomonidan hech qanday harakat qilinmasligi ham jinoyat sodir etishni yengillashtirishga sharoit yaratadi. Jinsiy jinoyatlar tahlili jabrlanuvchilar xulq-atvorining ko'rinishi va ularning aybdor bilan jinoyat sodir etilgunicha bo'lган o'zaro munosabatlari xususiyati o'rtasida muayyan o'zaro bog'liqlik mavjudligini aniqlash imkonini beradi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, jabrlanuvchi xulq-atvorining ko'rinishlari jinoyat sodir etishga undovchi va undamaydigan turlarga bo'linib, jinoyat sodir etishga undamaydigan xulq-atvorning 18 %i aybdor shaxsning kriminogen axloqiy-ruhiy shakllanish shart-sharoitlari, 52 %i shaxsning jinoiy niylatlari ro'yobga chiqarilishi da yengillashtiruvchi vaziyatni vujudga keltirgan, 30 %i oxirini o'yamasdan yengiltaklik qilgan.

Bu borada voyaga yetmagan jabrlanuvchilar ning viktima xulqini o'rganadigan bo'lsak, ularni jinoyatdan jabrlanishining sabablarini tadqiq qilish va ushbu muammoni hal etishda voyaga yetmagan jabrlanuvchilar shaxsini chuqurroq o'rganib chiqish zaruratini vujudga keltiradi. Voyaga yetmagan o'smirlarning jabrlanuvchi bo'lib qolishi va xulqida jamiyatga xilof xususiyatlar shakllanishida ijtimoiy muhit va oilaning roli katta. Chunki aynan oila axloqiy shakllanishida asosiy joy hisoblanadi.

Bugungi kunda voyaga yetmaganlarning jinoiy yo'lni tanlashiga zo'ravonlik, jinoiy yo'l bilan boylik orttirish, ma'naviy buzuqlikni targ'ib qiluvchi filmlar tomosha qilish, jinoyat olami vakillarining hayot tarziga taqlid qilish kabilar turtki bo'lmoqda [11].

AQSh Adliya statistika byurosi (The Bureau of Justice Statistics)ning ma'lumotiga ko'ra, zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning 12 yosh va undan katta yoshdagi voyaga yetmagan jabrlanuvchilari soni 2015-yilda 2,7 million, 2019-yil 3,3 millionidan ortgan [12].

Bundan tashqari, voyaga yetmaganlarning turli jinoyatlarda, jumladan, jinsiy jinoyatlarni sodir etishida ham oilaning axloqiy sifatlari o'z ta'siri ni o'tkazadi. Bu borada voyaga yetmaganlarning jinsiy jinoyatlardagi viktimligi va uning yuzaga kelishida xulq-atvorni e'tiborga oladigan bo'lsak, o'tkazilgan tadqiqotlarga qaraganda, 28,7 %i ho-

latlarda jabrlanuvchilar ning viktima xulqi jinoyat sodir etishga sabab bo'lgan. Nomusga tegish jinoyati bo'yicha 29 %i holatda voyaga yetmagan jabrlanuvchilar o'zlarining yengiltak xulq-atvori bilan tavsiflangan, 45 %i holatda esa ularga ja-moatchilik tomonidan salbiy tavsif berilgan.

Bundan tashqari, ularga nisbatan jinsiy zo'ravonlik tarkibiga nomutanosib ravishda yoki o'rinsiz jinsiy aloqa va jinsiy aloqada bo'lman gan harakatlar, shuningdek rozi bo'lish yoki rad etishga qodir bo'lman gan kishiga nisbatan qilingan odam savdosini xatti-harakatlari ham kirgan. Hissiy yoki ruhiy zo'ravonlik, jirkanish, masxara qilish, qo'rqtish va kamsitish, rad etish va dushmanlik qilishning boshqa jismoniy bo'lman gan shakllari ham ushbu turlarga kiradi [12].

Voyaga yetmaganlar jinsiy daxlsizligi va erkinligiga qarshi qaratilgan tajovuzlarda jabrlanuvchining kriminologik tavsifini belgilovchi eng ko'p tarqalgan omillar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: voyaga yetmagan shaxsning tajovuzlar bilan birgalikda spirtli ichimliklar iste'mol qilishi; voyaga yetmaganlarning axloq normalariiga zid xulqi; behayo kiyimlar (mini yubkalar va boshqalar); suhbatlarni jinsiy mavzularga aylantirish kabi [13], deb ta'kidlaydi Q.Payzullayev. O'rganilgan jinoyat ishi materiallari natijalariga ko'ra, voyaga yetmagan jabrlanuvchilarning 28 %i sigaretta chekkan, 34 %i spirtli ichimlik ichgan, 18 %i esa giyohvandlik vositalari iste'mol qilgan, 20 % jabrlanuvchining badanida turli rasmlar aks etirilgan. Shuningdek, ushbu turdagani jinoyatlarning 55 % holatida jabrlanuvchi mastlik holatida bo'lgan, 30 % holatida jabrlanuvchi ayblanuvchi bilan birga spirtli ichimlik iste'mol qilgan.

Kriminogen vaziyatning yuzaga keltirayotgan viktima xulq-atvorni olimlar 3 guruhga bo'lib o'rgangan: 1. Jinoyat sodir qilishga ig'vo qiluvchi (mayl uyg'otuvchi) xulq-atvor. Bunday holatda jabrlanuvchi o'z xulq-atvori bilan unchalik tanish bo'lman gan yoki umuman tanish bo'lman gan shaxslarni begona joylarda (aybdorning uyida yoki boshqa joylarda) jinsiy aloqa qilishga undovchi xatti-harakatlarni amalga oshiradi. Bunday xulqdagi jabrlanuvchilar jinsiy jinoyat jabrlanuvchilarining 10-15 %ini (nemis olimlarining tadqiqotlari bo'yicha 1/3 qismini) tashkil etadi. 2. Ig'vogarona (provakatsion) bo'lmasa-da, jinsiy aloqaga kirishishga obyektiv imkoniyat yaratib beruvchi xulq-atvorga ega bo'lgan. Masalan, ayol jinsidagi shaxs-

ning kechki paytda hech kim bo'limgan hamda tajovuz sodir bo'lish xavfi bo'lgan joylarda yakka o'zi yurishi kabi. Bunday xulq-atvor jabrlanuvchilarining 35-40 %ini tashkil etadi. 3. Neytral xulq-atvor. Ya'ni shaxs o'z xulq-atvori orqali jinoyat jabrlanuvchisiga aylanishini tushunib yetmagan holda unga shart-sharoit yaratib beradi. Bunday xulq-atvordagi shaxslar toifasiga, birinchi navbatda, yosh bolalar va keksalar kirib, ular jabrlanuvchilarning 45-60 %ini tashkil etadi [14].

Tadqiqot natijalariga ko'ra, voyaga yetmaganlar hayoti, sog'lig'i, jinsiy daxlsizligi va erkinligiga qarshi qaratilgan tajovuzlarda jabrlanuvchilarining kriminogen tavsifini o'rganish ularni yosh doirasiga qarab tasniflashni taqozo etadi. Fikrimizcha, buni quyidagicha tasniflash o'rinnlidir: 14 yoshgacha va 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan jabrlanuvchilarning kriminologik tavsifi. Shubhasiz, 14 yoshga to'limgan voyaga yetmagan jabrlanuvchilar 14-18 yoshgacha bo'lgan jabrlanuvchilarning kriminogenidan farq qildi.

Birinchi guruhga kiruvchi voyaga yetmaganlar (yosh bolalar) yomon ish sodir bo'lganligini biladi, ammo bu haqda tushunarli qilib aytib bera olmasligi mumkin. Jabrlanuvchilar maktab yoshiga yetgan bolalar bo'lgan taqdirda esa ular ko'pincha o'zlariga nisbatan sodir etilgan buzuq harakatlar haqida kattalarga aytishga uyaladi. 12-14 yoshdagagi bolalar ularga nisbatan sodir etilgan jinsiy xarakterdagi xatti-harakatlar jismoniy va ma'nnaviy (axloqiy) pokizaligini bulg'ash ekanini bilishmaydi. Bu borada E.B. Melnikova [15] hozirgi kundagi bolalar va o'smirlar shaxsining genetik, demografik va individual ruhiy sifatlari birlamchi tarzda ularning ma'lum shart-sharoitga bog'liq holda o'zgarishiga olib kelishini to'g'ri ta'kidlab o'tgan.

Ikkinci guruhdagilar, ya'ni 14-18 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar esa ba'zan o'zlarini fahsh yo'lga o'tishga moyillik ko'rsatadi. Chunki bu ularda uyg'ongan jinsiy qiziqishni qondirdidi. Ushbu guruh jabrlanuvchilarni 14 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan hamda 16 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan jabrlanuvchilarga bo'lib o'rganish mumkin. Jabrlanganlarni bunday toifalarga bo'lismizga sabab voyaga yetmaganlar jinsiy daxlsizligiga tajovuz qiluvchi jinoyatlarning 16 yoshga to'limgan shaxslarga nisbatan ko'proq sodir etilayotganligidir.

Jinsiy daxlsizligi (yoki erkinligi)ga jinsiy aloqa bilan tajovuz qilinganda, voyaga yetmagan shaxs dahshatga tushishi, o'zini yo'qotib qo'yishi kabi holatlar kuzatiladi. Nomusiga tajovuz qilingan voyaga yetmagan qizlarda zo'rланганидан keyin uzoq vaqtgacha qo'rquiv, asabyilik, atrofdagilarga ishonmaslik, o'ziga humatsizlik, ruhiy buzilish va emotsiyonal qiyinchiliklar [16], ba'zan o'z joniga qasd qilish hollari ham yuz berishi mumkin. Yana bir jihat borki, bunda jabrlanuvchilarning aksariyat qismida aybdorlik hissi saqlanib qolaveradi va keyinchalik jinsiy hayot sohasida muammolarni yuzaga keltiradi.

Fikrimizcha, voyaga yetmagan jabrlanuvchi shaxsining viktimaligini tavsiflovchi xususiyatlari qatoriga uning qo'rqqanligi, irodasizligidan tashqari, o'z o'rtoqlari orasida obro'sini yo'qotishdan qo'rqish holatlarini ham kiritishimiz mumkin. Q.P. Payzullayev jinoyatning ijtimoiy xavfliligidan kelib chiqib, voyaga yetmaganlarning jinsiy jinoyatlardan jabrlanishining salbiy jihatlarini quyidagicha izohlaydi: 1) jinoyat jabrlanuvchilarining hayotiy tajribasi yetarli emasligi, ishonuvchanligi, soddaligi tufayli ular jinoyat qonunining maxsus muhofazasiga muhtoj shaxslar hisoblanishi; 2) aksariyat hollarda bu turdag'i jinoyatlarning oldini olish choralarini samarali amalga oshirishga imkoniyat bo'lmaydi. Shuningdek, ularni fosh qilish boshqa jinoyatlarga nisbatan qiyinroq kechadi. Chunki bunday jinoyatlar xavfli munosabatlar bilan bog'liq bo'lib, deyarli barcha holatlarda guvohlarsiz sodir etilishi; 3) bunday jinoyatlarining latentlik darajasi boshqa jinoyatlarga nisbatan yuqoriyoq bo'lib, jinoyatlarning latentligi, avvalambor, jabrlanganlarning atrofdagilarning salbiy bahosidan qo'rqishiga olib kelishi; 4) ushbu turdag'i jinoyatlar va jinoyatdan jabrlanish, asosan, ijtimoiy muhitga bog'liq bo'lib, ularning oldini olish, rivojlanganlik darajasidan qat'i nazar barcha davlatlar uchun jiddiy muammo hisoblanadi [17].

Yuqoridagi fikrlarga qo'shimcha qilib, shaxsning kriminogen xususiyatlari va xatti-harakatlarini yuz bergan tajovuzni hech kimga sezdirmaslikka urinishi, uning boshqalar oldida sharmanda bo'lishi, obro'sizlanib qolishi kabi oqibatlardan cho'chishi kabilarni aytish mumkin. Bu borada sud amaliyotidan misol keltiradigan bo'lsak, aybdor O. 2016-yilning o'rtalaridan 2017-yilning oxirlarigacha davomli tarzda o'zining 14 yoshli G. ismli qizining nomusiga tegib, jinsiy ehtiyojini

zo'rlik ishlatib g'ayritabiiy usulda qondirib kelgan. Qizning onasi buni sezib, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar bergandan keyingina uning jinoyati fosh bo'lgan [18]. Ungacha qiz otasining xatti-harakati haqida hech kimga aytmagan.

Mazkur turdag'i jinoyatning jabrlanuvchisi hisoblangan voyaga yetmaganlarning kriminologik xususiyatlaridan biri shunday izohlanadiki, ular bu haqda nafaqat o'z ota-onalari yoki boshqa yoshi katta yaqinlariga aytmaydi, balki iloji boricha bu munosabatlarni sir tutishga harakat qildi.

Nomusiga tajovuz qilingan jabrlanuvchilarining aksariyati o'ta o'zgaruvchan, ta'sirga beriluvchan, tasodifiy aloqa qilishga moyil qizlardir [19]. Jabrlanuvchilarini bunday toifalarga bo'lib o'rganishni to'g'ri deb baholaymiz, chunki bunda ularning shaxsiy xarakteridagi xususiyatlar ham hisobga olinadi [20].

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Gollandiya [21], Shvetsiya [22], Daniya [23] kabi davlatlar Jinoyat kodeksi bo'yicha jinoyat jabrlanuvchisi ham ayol, ham erkak jinsidagi shaxslar hisoblangan. Xitoy Xalq Respublikasi [24], Estoniya [25], Latviya [26] va AQSh [27] davlatlarining jinoyat qonunida esa bunday jinoyat jabrlanuvchisi faqat ayol jinsidagi shaxs bo'lishi belgilangan. Erkak jinsidagi shaxsning erkiga xilof tarzda zo'rlik ishlatib, qo'rqtib yoki ojizligidan foydalanib jinsiy aloqa qilish jinoyati sud amaliyotida deyarli uchramasa ham, qonun bunday holatni inkor qilmaydi.

Voyaga yetmagan shaxslarning nomusiga tegish uchun javobgarlik normalarini belgilovchi moddalar dispozitsiyasini aniqlashda qonun chiqaruvchi tomonidan himoyaga olingan shaxslarning yoshi 18 va 14 yosh qilib belgilandi. Bu bilan voyaga yetmagan va kichik yoshdagilar ning nomusiga tegishatamalari bilan bog'liq muammolar bartaraf qilinadi [28]. Ammo voyaga yetmaganlar jinsiy daxlsizligi bilan bog'liq jinoyat jabrlanuvchilarini o'rganishda yetkazilgan jismoniy va ma'naviy zararni qoplashda bir qancha muammolar vujudga kelmoqda.

Bundan tashqari, jinsiy jinoyatlarda jabrlanuvchi erkak jinsidagi shaxs bo'lishi ham mumkin. Sud amaliyotida erkak jinsdagi shaxsni ham jinsiy xarakteridagi harakatlarga majbur qilish uchra-

moqda. Shulardan kelib chiqib, JKning 121-moddasi nomini "Shaxsni jinsiy xarakterdagi harakatlarga majbur qilish" va birinchi qism dispozitsiyasini "*Shaxsni jinsiy xarakterdagi harakatlarga majbur qilish*" va birinchi qism dispozitsiyasini "*Shaxsni yoki uning yaqin kishilariga zo'rlik ishlatish, mulkka shikast yetkazish yoki uni nobud qilish yoxud shaxs uchun sir saqlanishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni oshkor qilish bilan qo'rqtib yoxud shaxsning xizmat, moddiy yoki boshqa jihatlardan qaramligidan foydalangan holda, jinsiy aloqa qilish yoki shunga o'xshash jinsiy xarakterdagi harakatlarni sodir etishga majbur etishi*", deb berish taklif etiladi.

Bunday taklif berishdan maqsad Jinoyat kodeksida jabrlanuvchi yoki uning yaqin kishilariga zo'rlik ishlatish, mulkka shikast yetkazish yoki uni nobud qilish yoxud jabrlanuvchi uchun sir saqlanishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni oshkor qilish bilan qo'rqtib jinsiy aloqada bo'lganlik uchun javobgarlik alohida belgilanmagan. Ayrim holatlarda bu holat JKning 118-moddasi (nomusga tegish) dagi "qo'rqtish" tushunchasi bilan chalkashlikka olib kelib, bunda jismoniy zo'rlik ishlatib qo'rqtish ko'proq e'tiborga olinadi. 121-moddadagi shaxsni jinsiy xarakterdagi harakatlarga majbur qilishda esa ruhiy zo'rlik ham nazarda tutiladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 121-moddasini tahlil qilar ekanmiz, mazkur holatda qonun chiqaruvchi o'z himoyasiga faqat ayollarnigina olganligini ko'ramiz. Bu norma ayollarni majburiy jinsiy aloqadan himoya qiladi, lekin ularni axloqiy buzuq harakatlardan himoya qila olmaydi.

Mazkur norma mazmuni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining normalariga ziddir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida "xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar" [29], deb e'tirof etiladi. Jinoyat kodeksi 121-moddasining mazmuni mamlakatimiz Asosiy qonuning mazkur moddasiga zid keladi. Shu holatlardan kelib chiqib, jamiyatda ayollar mavqeyini mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 121-moddasining birinchi qismiga o'zgartirish kiritilishi lozim, deb o'yaymiz.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni [Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-4947 of February 7, 2017 "On the Action Strategy for the further development of the Republic of Uzbekistan"]. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami – Collection of Legislation of the Republic of Uzbekistan, 2017, no. 6, art. 70.
2. Taxirov F. Jinsiy jinoyatlarning oldini olish muammolari [Problems of prevention of sexual crimes]. Tashkent, TSUL, 2006, p. 163.
3. Kriminologiya. Slovar' [Criminology. Dictionary]. Saint Peterburg, Lan, 1999, p. 166.
4. Abdurasulova Q.R. Ayollar jinoyatchiligining jinoyat huquqiy va kriminologik muammolari. Monografiya [Criminal law and criminological problems of women's crime. Monograph]. Tashkent, TSUL, 2005, p. 35.
5. Baskov A.V. Viktimologicheskaya profilaktika koristno nasilstvennix prestupleniy, sovershaemix vobshchestvennix mestax. Avtoref. dis. kand. yurid. nauk [Victimological prevention of selfishly violent crimes committed in public places. Abstract of the thesis. dis. Cand. jurid. sciences]. Moscow, 2010, p. 180.
6. Xatkova F.X. Viktimologicheskie aspekti jenskoy prestupnosti. Avtoref. dis. kand. yurid. nauk [Victimological aspects of female crime. Abstract of the thesis. dis. Cand. jurid. sciences]. Moscow, 2004, p. 186.
7. Rivman D.V. Kriminalnaya viktimologiya [Criminal victimology]. Saint Peterburg, Piter, 2002, p. 43.
8. Rivman D.V. Rol poterpevshix ot nasilstvennix prestupleniy, sovershennix v dosugovoy i proizvodstvennoy sferax [The Role of Victims of Violent Crimes in the Leisure and Work Spheres]. Kriminologicheskie i ugolovno-prvovie borbi s nasilstvennoy prestupnostyu – Criminological and criminal law combating violent crime, 1999, p. 48.
9. Zokirova O.G'. Rashk motivi bilan sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurash muammolari [Problems of combating crimes committed with jealousy]. Tashkent, TSUL, 2004, p. 145.
10. Pulatova Sh. Voyaga yetmaganlarga nisbatan oilada zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning umumijtimoiy oldini olish. O'zbekistonda oila, onalik va bolalikni muhofaza qilishning konseptual masalalari [Social prevention of domestic violence against minors. Conceptual issues of family, motherhood and childhood protection in Uzbekistan]. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami – Proceedings of the Republican scientific-practical conference. Tashkent, TSUL, 2016, p. 143.
11. Muxtorov J.S. Ichki ishlar idoralari profilaktika xizmatlari tomonidan jinoyatlarning oldini olishni ta'minlash. Yurid. fan. nomz. dis. [Ensuring crime prevention by law enforcement agencies. Yurid. fan. nomz. dis.]. Tashkent, 2009, p. 35.
12. Morgan R, Oudekerk B.A. BJS Statisticians. Criminal Victimization, 2018. Available at: <https://www.bjs.gov/index.cfm?ty=pbdetail&id=6686/>.
13. Payzullaev Q.P. Voyaga yetmaganlarning jinsiy daxlsizligi va erkinligini muhofaza qilish muammolari (jinoyat-huquqiy, kriminologik jihatlari). Yurid. fan. nomz. ilm. darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoref. [Problems of protection of sexual integrity and freedom of minors (criminal, criminological aspects)]. Yurid. fan. nomz. ilm. written diss to get the degree]. Tashkent, 2006, p. 22.
14. Stepanova O.Y. Polovie prestupleniya po UK 1996g (obshaya xarakteristika i problemi kvalifikatsii). Vipusknaya kvalifikatsionnaya rabota [Sexual crimes according to the Criminal Code of 1996 (general characteristics and problems of qualification). Final qualifying work]. Ryazan', Moskovskiy institut ekonomiki, menejmenta i prava – Moscow Institute of Economics, Management and Law, 2001, p. 33.
15. Melnikova E.B. Deti i podrostki – jertvi negativnix yavleniy [Children and adolescents are victims of negative phenomena]. Pravozashitnik – Human rights defender, 2000, no. 1, pp. 95–97.
16. Child abuse and neglect: Biosocial dimensions. Ed by Gelles R.Y., Lancaster Y.B. N. Y.: de Gruyter, 1987. Moscow, 1992, p. 29.
17. Jetpisbaev B.A. Sotsialno-pravovie aspekti deviantnogo povedeniya nesovershennoletnix [Social and legal aspects of deviant behavior of minors]. Chelovek i pravo – Man and law, 2000, no. 4 (6), pp. 58–63.
18. Toshkent viloyati jinoyat ishlari bo'yicha sudining arxiv materiallaridan [From the archives of the Tashkent Regional Criminal Court]. Tashkent, 2018.
19. Alauxanov Y., Abdurasulova Q.R., Boyko A. Bezopasnost cheloveka i grajdani: pravo i neobxodimost [Human and Citizen Safety: Right and Necessity]. Almati, Nur Press, 2012, p. 38.
20. Hakimov K. Questions of improving the individual articles of the criminal code in the process of further deepening of democratic reforms (criminal code 98, 106-articles). Yuridik fanlar ahborotnomasi – Bulletin of legal sciences, 2017, no. 2, pp. 118–121.

21. Ugolovnyj kodeks Gollandii. Zakonodatelstvo zarubejnix stran [Dutch Penal Code. Legislation of foreign countries]. Saint Peterburg, Legal Center Press, 2001, p. 355.
22. Ugolovnyj kodeks Shvesii. Zakonodatelstvo zarubejnix stran [Swedish Penal Code. Legislation of foreign countries]. Saint Peterburg, Legal Center Press, 2001, pp.54–55.
23. Ugolovnyi kodeks Danii. Zakonodatelstvo zarubejnix stran [Danish Penal Code. Legislation of foreign countries]. Saint Peterburg, Legal Center Press, 2001, p. 174.
24. Ugolovnyi kodeks Kitayskoy Narodnoy Respubliky. Zakonodatelstvo zarubejnix stran [Criminal Code of the People's Republic of China. Legislation of foreign countries]. Saint Peterburg, Legal Center Press, 2001, p. 161.
25. Ugolovniy kodeks Estonii. Zakonodatelstvo zarubejnix stran [Estonian Criminal Code. Legislation of foreign countries]. Saint Peterburg, Legal Center Press, 2001, pp. 113-114.
26. Ugolovniy kodeks Latvii. Zakonodatelstvo zarubejnix stran [Criminal Code of Latvia. Legislation of foreign countries]. Saint Peterburg, Legal Center Press, 2001. pp. 172-173.
27. Ugolovnoe pravo SShA: uspexi i problemi reformirovaniya [Us criminal law: successes and challenges of reform]. Saint Peterburg, Legal Center Press, 2007, pp. 353–360.
28. Hakimov K. Osobennosti yuridicheskoy konstruksii affekta (sostoyanie silnogo dushevnogo rasstroystva) kak oblegchayushego obstoyatelstva otvetstvennosti i nakazaniya [Features of the legal structure of affect (a state of severe mental disorder) as facilitating the circumstances of responsibility and punishment]. Review of law sciences, 2018, no. 4.
29. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi [Constitution of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, Adolat, 2021. Available at: <https://nrm.uz/>.
30. Yuridicheskaya jizn v Kitae. Otv. red. L.M.Gudoshnikov, per. s. kit. Axmetshin N.X., Vasilev I.V., Yegorov K.A. [Legal life in China. Resp. ed. L.M. Gudoshnikov, trans. With. whale. Akhmetshin N.S., Vasiliev I.V., Egorov K.A.]. Moscow, Legal literature, 1990, pp. 164-165.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

MAXSUS SON / 2021

II QISM

BOSH MUHARRIR:

Nodirbek Salayev

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ikrom Ergashev

Ilmiy boshqarma boshlig'i

Mas'ul muharrir: D. Xudoynazarov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, K. Abduvaliyeva,
F. Muhammadiyeva, Y. Yarmolik

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Web-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

E-mail: tn.tdyu@mail.ru

Jurnal 15.12.2021-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli 25,92 b.t. Adadi: 100.

Buyurtma: № 70.

TDYU tipografiyasida chop etildi.